O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 60230100-2,01
2021-yil “___”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021-yil “___”_____

MUMTOZ SHE’RIYAT POETIKASI

(Tanlov fanidan)

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o’qitish (o’zbek tili)

SAMARQAND - 2021

Fan dasturi "Mumtoz adabiyot tarixi" kafedrasining 2021-yil 25 - may dagi 9 -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. I. Sulaymonov**

Fan dasturi Filologiya fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 26 - may dagi 8 -sonli bayonnoma).

Fakultet Ilmiy kengashi raisi **prof. A.Pardayev**

Fakultet uslubiy kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

"Kelishildi"

SamDU o'quv ishlari

bo'yicha prorektor: **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
MSHPT4005	2022-2023	3	5

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Tanlov	O‘zbek	4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
	Mumtoz she’riyat poetikasi	75	75	150

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – "Mumtoz she’riyat poetikasi" fanining asosiy maqsadi talaba yoshlarni madaniy va ma`naviy ildizlardan bahramand etishga qaratilgan. Adabiy namunalarni o`rgatish, o`zlashtirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkur ko`lamini yuksaltirish, badiiy so`z qudratini his qilish va his qildira olish qobiliyatini shakllantirish, yuksak axloq va did egalarini tarbiyalash nazarda tutilgan.

Fanning vazifalari:

- talabalarda mumtoz she’riy matnlarning vazn xususiyatlari, turkiy aruzning o’ziga xos jihatlari, ijodkorlarning vaznlardan foydalanish mahoratini tadqiq va tahlil etishga doir ko’nikma va malaka hosil qilish;
- badiiy asar mohiyati, unda shakl va mazmun mutanosibligini chuqur anglash ko`nikmasini hosil qilish;
- lirik turga mansub janrlar haqida nazariy ko`nikma hosil qilish, janrlar tarixi, ildizlari, tadrijiy taraqqiyotini tushuntirish;
- lirik turning nodir namunalari va ularning adabiy jarayondagi holati bilan yaqindan tanishtirish;
- mavjud matnlarni ijtimoiy-estetik hodisa sifatida tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish malakasini shakllantirish;
- talabada estetik didni, badiiy so`zni his etish ko`nikmasini hosil qilish;
- egallangan bilim va malakani ta’lim tizimini rivojlantirish yo`lida amaliyotga tadbiq etish.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-bo’lim:

Kursning maqsad va vazifalari.

Mumtoz poetika asoslari, aruz va uning tarkibiy qismlari

“Mumtoz she’riyat poetikasi” fanining predmeti, manbalari, maqsad va vazifalari, o’rganilish ahamiyati, malaka talablari.

“Poetika” va “mumtoz poetika” tushunchalari, Sharq mumtoz poetikasi

tarixidan. “Ilmi segona” haqida ma’lumot (aruz, qofiya va badiiy san’atlar). Arab, fors-tojik va turkiy manbalarda poetikaga oid qarashlarning tadrijiy taraqqiyoti. Ahmad Taroziy va uning “Funun ul-balog’a” asari poetikaga oid turkiy tildagi ilk manba sifatida. Alisher Navoiy va Boburning poetikaga oid qarashlari.

She`riy nutq va uning oziga xos xususiyatlari. Vazn sh’rning birlamchi belgisi ekanligi. Nutq bo'laklarining muayyan o'lchov asosida joylashtirilishi, ritm. Dunyo xalqlari she`riyatining tarixiy taraqqiyotida turli-tuman she`riy vaznlar yoki vaznlar tizimining qo'llanganligi.

She’riy vazn tushunchasi, aruz va uning tarkibiy qismlari

Misralardagi cho’ziq va qisqa hijolarning muayyan tartibda takrorlanishiga asoslaniladigan metrik vaznlar. She`riy tizimlarda misralardagi hijolar miqdori, urg’ularning muayyan tartibi. Sillabik (bo’g’in) - bo’g’inlar yoki hijolar sonining tengligiga asoslanuvchi vaznlar; tonik (urg’u) – urg’uli bo’g’inlarning muayyan tartibiga asoslanuvchi vaznlar va sillabik-tonik (bo’g’in-urg’u) bo’g’in va urg’ularning miqdori hamda muayyan tartibiga asoslanuvchi vaznlar.

"Aruz" atamasining kelib chiqishi haqidagi fikrlar. Xalil Ibn Ahmad haqida. “Bayt” so’zining lug’aviy va istilohiy ma’nolari. Baytning ruknlardan, ruknlarning esa juzvlardan tashkil topishi. Arab alifbosidagi harakatli va sokin harflar. Juzvlarning guruhlarga bo'lininishi: sabab, vatad va fosila ularning turlari.

Aruzda ruknlar va ularning rang barangligi

Rukn atamasining lug’aviy va islilohdagi ma’nolari. Harflar va juzvlar haqida ma’lumot. Sabab, vatad, fosila. Aruz tizimida “asl ruknlar” (“asllar”) va ularning hosil bo'lishi. Asl ruknlarlarning harflar miqdoriga ko'ra ikkiga ajratilishi: xumosiy (besh harfli asllar) va subo`iy (etti harfli asllar) asllar.

Fors-tojik va turkiy she`riyatda qo'llanadigan asllar. Solim ruknlar, ularning turli bahrlarni hosil qilishi.

Aruz she`riy tizimida mavjud bo’lgan sakkizta asldan turkiy she`riyatda faol qo’llanadiganlari: fa`uvlun, mafo`iylun, fo`ilotun, mustaf`ilun va maf`uvlotu asl ruknlari ekanligi.

Solim ruknlarning turli tarzda o'zgartirishi natijasida qisqargan, o'zgargan shakllarining yuzaga kelishi. "Zihof" va "furu`" atamalari. O’zgarish usuiiari: harakatli yoki sokin harflarning tushib qolishi, harakatli harfning sokinga aylanishi, hijolarning tushib qolishi.

Alisher Navoiy va Boburning "zihof" haqidagi ta`riflari. Zihof va

furu`larni tushuntirish yo'llari. Zihoflar tarkibiga ko'ra ikki guruhga ya`ni sodda va murakkab zihoflarga bo'linishi. Zihof va furu'larni aniqlash va tahlil qilish yo'llari.

2-bo'lim: Aruz amaliyoti.

Aruz bahrlari

Bahr so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolari. Ruknlarning takroridan hosil bo'luvchi vaznlar turkumi ekanligi. Sakkizta aslning yettitasi alohida bahrlarni hosil qilishi. "Mutaqorib", "mutadorik", "hazaj", "ramal", "rajaz", "komil", "vofir" bahrlari. Sodda va murakkab bahrlar haqida tushuncha. Bahrning murabba` (to'rt), musaddas (olti) va musamman (sakkiz) shakllari.

Sodda va murakkab bahrlar. Fors-tojik va turkiy she'riyatning an'anaviy sodda bahrlari. Mafoiylun ruknining zihof va furu'lari, hazaj bahrining rang-barangligi. Ramal vf rajaz bahrlarining o'ziga xos ritmikasi.

Murakkab bahrlar, ularning mumtoz she'riyatdagi o'rni

Murakkab (tarkibli) bahrlarning tuzilishi. Murabba', musaddas, musamman shakllarida qo'llanadigan murakkab bahrlar. Murakkab bahrlarning o'zbek mumtozh she'riyatida qo'llanish tarixi. Alisher Navoiy she'riyatida mujtass, muqtazab, muzore' bahrlarining o'rni. Sare' va xafif bahrlari, ularning dostonchilikdagi o'rni. Murakkab bahrlarni tahlil qilish usullari.

Taqte` va uning murakkab jihatlari

"Taqte`" so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolari. Taqte` baytni ritmik bo'laklar-ruknlarga ajratish qonuniyatlarini ifodalovchi yoxud o'rgatuvchi fasl ekanligi. Taqte` aruz amaliyotining asosi ekanligi. Taqte` haqida Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Boburning fikrlari.

Bayt yoki she`riy asar vaznini aniqlash bosqichlari.Taqte`da yozuv yoki kitobat emas talaffuzga e`tibor berilishi. Qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq bo'g'inlar arab yozuvidagi harflar miqdoriga ko'ra farqlanishi.

Aruzda baytdagi har bir runkning o'z maxsus nomi. "Sadr", "aruz", "ibtido", "zarb" ("ajuz"), "hashv" ("hashvayn") atamalari.

3-bo'lim: Aruz poetikasi

Vazn variatsiyalari va ularning poetik mohiyati

Variatsiya tushunchasi va uning mohiyati. Vazn variatsiyalarini yuzaga keltiruvchi omillar. Cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarning almashishi, ikki qisqa hijoning bir cho'ziq hijo bilan ekvivalentligi, cho'ziq va qisqa hijolarning almashishi.

"Xamsa" (Alisher Navoiy) dostonlarida vazn variatsiyalari. Vazn variatsiyalarining ritmga ta'siri. Vazn variatsiyalari bilan vazndagi nuqsonlarni farqlay olish ko'nikmasi.

Aruz va mumtoz she'riy janrlar

Aruzni bilish she`riy janrlarni farqlash va to'g'ri tahlil qilish imkonini berishi. Ruboiy, tuyuq, mustazod kabi janrlar uchun vazn asosiy xususiyat ekanligi. Mustazod haqida Alisher Navoiy ma`lumoti. Uning yagona vaznda (hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf) yozilishi.

Ruboiy fors-tojik va turkey she`riyatning eng sermahsul va sevimli janrlaridan birisi fatida. Ruboiy haqida Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asaridagi ma'lumotlar. Ruboiy aruz tizimining hazaj bahriga tegishli bo'lgan 24 xil vaznda yozilishi. Axram (maf`uvlun, - - -) va axrab (maf`uvlu - - V) shajaralari.

Tuyuq haqida Alisher Navoiy, Ahmad Taroziy va Boburning fikrlari. Boburning "Muxtasar" asarida tuyuq tasnifi. Tuyuq janrining asosiy belgisi aruzning ramali musaddasi maqsur (mahzuf) vaznida yozilishi ekanligi. Bu borada adabiyotshunosligimizdagi muammolar.

4-bo'lim: Qofiya nazariyasi va amaliyoti.

Qofiya tushunchasi va istilohiy ma'nolari haqida. "Ilmi Qofiya"ning shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, arab, fors-tojik va turkiy tillarda yaratilgan manbalar tavsifi. Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a"da qofiya badiiyati haqida. Abdurahmon Jomiyning "Risolayi qofiya"si. Alisher Navoiyning qofiya haqida qarashlari.

XX-XXI asrlarda qofiya nazariyasining o'rganilishi. Qofiyani hosil qiluvchi unsurlar haqidagi munosabatlar (harf va harakat, unli va undosh tovushlar munosabati). Raviy – qofiyaning asosi.

Qofiya tarkibi haqidagi qarashlar, qofiyani hosil qiluvchi to'qqiz unsur (harf). Raviy, ridf, qayd, ta'sis, vasl kabi unsurlarning mohiyati qofiyadagi ahamiyati. Qofiya harflarining harakati.

Mumtoz va zamonaviy she'riyatda qofiya turlari, rang-barangligi (mutlaq, murdaf, muqayyad), qofiyadagi xatolar va ularning sabablari. Qofiyaning lug'aviy tarkibini aniqlash va uning ahamiyati.

Qofiya bilan bog'liq badiiy san'atlar poetikasi. Badiiy san`atlar haqida tushuncha, ularning she`riy nutq jozibadorligi, ta`sirchanligi va mazmundorligini oshirishdagi ahamiyati. Qofiyalanish tizimlari, baytli va bandli she'rlar. Qofiya bilan aloqador badiiy san'atlar. Qofiya miqdori: tarse', zulqofiyatayn; qofiya o'rni: zebqofiya, saj' va boshqalar. Qofiyaning she'r badiiyatidagi ahamiyati. Qofiya bilan bog'liq nuqsonlar.

5-bo'lim: Mumtoz she'riy san'atlar.

Mumtoz she'riyatda lafziy san'atlar

San`at so`zining etimologiyasi, lug'aviy va istilohiy ma`nolari. She'riy san'atlar nazariyasi tarixidan. Ahmad Taroziy va Alisher Navoiyning badiiy san'atlarga doir qarashlari. Atoulloh Husayniyning "Badoye' us-sanoye'" asari she'riy san'atlar ulmiga doir eng mukammal manba sifatida.

She`riy san`atlar so`zlarning shakliy xususiyatlari (ularning tarkibidagi tovushlar va harflarga xos xususiyatlar), ma`no qirralari, jumla, misra, bayt yoxud undan kattaroq birliklarning mazmuniga xos hodisalardan foydalanish natijasida hosil bo`lishi.

Lafziy san`atlar so`zlarning shakliy xususiyatlari ya`ni ularning tarkibidagi tovushlar va harflar bilan bog'liq hodisalar asosida yuzaga kelishi. Tarse`, tajnis, saj`, musajja`, zulqofiyatayn, takrir (mukarrar), qaytarish (radd) ishtiqoq, mulamma`, muvashshah, kitobat (harf san`ati) kabilar haqida ma'lumot.

Ma'naviy san'atlar tahlili usullari

"Ma`naviy san`atlar" nazariyasi, ularning jumla, misra, bayt yoxud undan kattaroq birliklarning mazmuniga xos hodisalardan foydalanish natijasida hosil bo`lishi. Mubolag'a va uning turlari (tablig', ig'roq, g'uluv), sifatlash, tazod, iyhom, laffu nashr, ta`did, ruju`, tashxis, irsoli masal, tazmin, husni matla`, ta`rix, muammo, tajohilul orif, husni ta`lil kabi ma`naviy san`atlar va ularning badiiy obraz yaratishdagi ahamiyati, shoir uslubini shakllantiruvchi omillar ekanligi.

III. Amaliy (yoki <u>seminar yoki laboratoriya</u>) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mumtoz poetikaga oid manbalar tahlili.
2. Baytnhi ruknlarga bo'lishga doir amaliy mashg'ulot.
3. Zihof va furu'lar tahlili.
4. Hazaj bahrining zihof va furu'lari tahlili.
5. Ramal va Rajaz bahrlarining zihof va furu'lari.
6. Ruboiy vaznlari tahlili.
7. Murakkab bahrlar taqte'si amaliyoti.
8. G'azallarda vazn variatsiyalari.
9. Mumtoz masnaviular va ularning vazni.
10. Mumtoz dostonlarda vazn variatsiyalari
11. Matn tahlilida vaznning ahamiyati.
12. Mumtoz qofiyaga oid manbalar ustida ishlash.
13. Qofiya bilan bog'liq badiiy san'atlar tahlili.
14. Mumtoz she'riyatda lafziy san'atlar.

	15. Ma'naviy san'atlar tahlili. 16. O'xshatish asosidagi badiiy san'atlar tahlili. 17. O'zgalar nutqidah foydalanish asosidagi badiiy san'atlar. 18. G'azal tahlili amaliyoti. . **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar** Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. "O'zbek poeziyasida aruz sistemasi", "Adabiyot nazariyasi" kitoblaridan jahon she'riyati vaznlariga doir boblarini konspektlashtirish. 2. "Navoiyshunoslik" kitobidan "Navoiy "Xamsa"sining vazn xususiyatlari" faslini konspektlashtirish. 3. "Mezon ul-avzon" asarlarida aruz atamasi va aruziylar haqida. 4. A.Hojiahmedovning "Navoiy aruzi nafosati" kitobidan "Navoiygacha bo'lgan o'zbek aruzi", "Navoiy dostonlarining ohanglar olami" fasllarini konspektlashtirish, kitobi so'ngidagi ilovalar asosida Navoiy she'riyatida eng ko'p uchraydigan yigirmata vaznni aniqlash. 5. Boburning "Muxtasar" asarida keltirilgan "Aruz doiralari" (9 ta) haqida izohli lug'at tuzish. 6. Alisher Navoiyning tanlangan g'azallarini to'liq taqte' va tahlil qilish (vazn, qofiya, badiiy san'atlar). 7. Alisher Navoiyning tanlangan g'azallarini audioyozuv asosida yod olish va vazn qoidalari asosida o'qish. 8. Navoiyning ruboiy, tuyuq va mustazod janrlariga oid she'rlaridan namunalar yod olish va tahlil qilish. 9. Navoiy "Xamsa"si dostonlaridan baytlar yod olish. 10. Aruz ilmiga oid atamalar lug'atini tuzish.
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Mumtoz she'riyat poetikasining tarixiy taraqqiyoti, yutuq va kamchiliklari, istiqboli haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Mumtoz she'riy asarlarning g'oyaviy olami, mazmun-mohiyati va badiiy barkamolligini anglash va shu haqda mulohaza yuritish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • Mumtoz she'riy asarlarning bugungi va ertangi kun uchun ahamiyatini bilish ba o'rgatish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • audio va videoma'ruzalar;

	• taqdimot; • matn ustida ishlash.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Tohirov S. Aruz vazni qoidalari. O’quv qo’llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2019. 148 bet. 2. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika. O’quv qo’llanma. – T.: Ta’lim-media, 2019. 3. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr, 2018. 4. Ishoqov Yo. So’z san’ati so’zligi. -T.:O'zbekiston, 2014. 5. Asallayev A., Rahmonov V., Musurmonqulov F. Badiiy san’atlar. – T.: Tafakkur, 2015. **I. Qo'shimcha adabiyotlar** 6. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - 427 б. 7. Ҳожиахмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006 8. Ҳожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. 9. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 1998. 10. Абдурахмон Жомий. Рисолайи аруз (Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи Д.Юсупова). – Т.: Tamaddun, 2014. 11. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т., 1980. **Internet va ZiyoNet saytlari** 12. Tohirov S. O’zbek she’riyatida aruz. www.ziyonet.uz. www.literature.uz.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2021-yil __-_____dagi __-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ul(lar)**: S.Q.Tohirov – SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
9.	**Taqrizchilar:** I.Sulaymonov – SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti filologiya fanlari doktori (DcS). (ichki) S.Yo’ldosheva – Sam VXTXMO va QTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. (tashqi)